

**Yuraklarga solib bir titroq,  
Jaranglaydi so'nggi qo'ng'iroq!**

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)



Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

**yulduzi**

2010-yil  
24-may  
N:21  
(66770)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092



Poytaxtimizning  
Sobir Rahimov tumanidagi  
46-maktab o'quvchilari ham  
**SO'NGGI QO'NG'IROQ**ni  
hayajon bilan kutishmoqda


Olouddin ORJPOV olgan suratlar

# BIR NIHOL QOLSIN

*Tabiatni bejiz onalarga qiyoslamaymiz. Chunki u ham onalardek go'zal va mehribon. Shunday ekan, uni onalardek e'zozlashimiz kerak. Tabiat bizga qanchalar zarur bo'lsa, bizning g'amxo'rligimiz uning uchun shunchalar muhimdir. Insonlar o'zlari uchun sharoit yarataman deb tabiatga jiddiy zarar yetkazib qo'yishayotgani hech kimga sir emas.*

Transportlar hayotimi qismiga aylangani rost. D barcha mashinalarni s: sanog'iga yetib bo'lmag nidek, ulardan chiqayotgar zaharli gazlar miqdorini va atrof-muhitga yetkazayotgan zararini ham hisoblab bo'lmaydi. Kamiga tumanimizdagi ayrim kishilar kuzda xazonlarni yoqib, ko'chalarga chiqindilarni tashlat ketishadi. Hech kim ko'm yapti-ku, qabilida tutadigan bunday vijdon azobida qiynal

Vohamizning tuman va qishloqlarida bu kabi muammolarni oldini olish borasida talaygina ishlari




amalga oshirilyapti. Mahallamiz raisi Mo'min aka va faollrimizdan biri Qobil akalar ozodalikni nazorat qilishadi.

Buvijonim bizga doimo, suvga tuflamanglar, uvoli tutadi, daraxtlarni sindirmanglar, ularning ham joni bor, deya uqtiradilar. Ularning pand-u nasihatlariga amal qilib, har yili bittadan nihol, hech bo'lmaganda, bitta gul ko'chati o'tqazib, so'lim tumanimiz ko'rkiga ko'rk qo'shsam deymen.

**Komila ABDUXOLIQOVA,**  
Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumanidagi  
2-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi

## MAHALLAMIZ OBOD, AMMO...



Agar borliqqa diqqat bilan nazar tashlasak, uning naqadar mo'jizalarga boyligini anglaymiz. Go'zalligi, saxiyli, maftunkorligiga guvoh bo'lamiz. Inson hamisha tabiat bilan uyg'unlikda yashaydi. U bizlarni yediradi, ichiradi, kiydiradi. Shunday ekan, tabiatni ardoqlashimiz, sofligiga putur yetkazmasligimiz, boyliklarini avaylashimiz lozim. Maktabimiz qoshidagi «Yosh tabiatshunoslar» va «Yosh biologlar» to'garaklari ham aynan shu maqsadda tashkil qilingan. Har oyda ikki marta o'tkaziladigan

mashg'ulotlarda nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar ham faol qatnashadilar. To'garaklarda tez-tez shanbaliklar o'tkazib turish yaxshi an'anaga aylangan. Unda maktabimiz bog'i va uning atroflari chiqindilardan tozalanadi.

To'garak rahbarimiz boshchiligida turli tanlovlar o'tkazamiz, referat va ma'ruzalar tayyorlaymiz. Tumanimizdagi ekologik muammolar haqida fikrlashamiz.

Men hozirda Jizzax shahrining qoq o'rtasida joylashgan mahallada istiqomat qilaman. Yangi qad rostlagan baland-baland uylar, binolar, do'konlar obod mahallamiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Mahallamiz o'rtasidan kichkina anhor oqib o'tadi. Biz tez-tez shanbaliklar uyushtirib, uning atroflarini tozalab turamiz. Shunday bo'lsa-da, anhorning ikki tarafi chiqindilar bilan to'lib yotadi. Ana shu anhor mahallamizning deyarli barcha

ko'chalaridan oqib o'tadi. Atrofida esa bir xil manzara. Chiqindilar osmondan tushmaydi yoki boshqa mahalladan kelib tashlab ketishmaydi. Uni mahallamiz odamlarining o'zlari ifloslantirishadi. Bizga shunisi alam qiladi-da. Axir bunday ko'ngilsiz holat ko'chalarimizning tashqi ko'rinishiga ta'sir qilibgina qolmay, insonlar salomatligiga ham jiddiy putur yetkazayapti-ku.

Shular haqida nafaqat biz bolalar, balki kattalar ham jiddiyroq o'ylab ko'rishsa, foydadan xoli bo'lmasdi.

**Ma'rifat  
FAYZULLAYEVA,**  
Jizzax viloyati,  
Jizzax shahri,  
Ko'tarma mahallasi

(Qisqartirilgan holda nashrga tayyorlandi)

## TA'TILIMIZ KO'NGILLI O'TSIN!

Bolajonlarning yozgi ta'tili ko'ngildagidek o'tishi uchun yong'in xavfsizligi xodimlari ham astoydil harakat qilishmoqda. Hech bir yong'in sababsiz kelib chiqmaydi. Ozigina loqaydlik katta muammolarni keltirib chiqaradi.

Shu bois oromgohlarda quyidagi qoidalarga rioya etilishi talab qilinadi:

– oromgoh hududidagi binolarning yong'inga moyil qurilish qismlari yong'inni o'chiruvchi maxsus kimyoviy suyuqlik bilan qayta ishlanishi;

– hududdagi elektr simlar va kabellar himoya qobiqlarining elektr tokiga chidamlilik darajasi sinovdan o'tkazilishi, nasos elektr manbaalarining sozlariga almashtirilishi;

– ko'zga ko'rinadigan joylarga birlamchi

yong'in o'chirish vositalari o'rnatilishi, unda belkurak, temir ilgak, bolta, ikki dona chelak, yong'in o'chirgichlar joylashishi, yonidan suv to'ldirilgan bochka va qumli quti o'rin olishi;

– kamida to'rt kishidan iborat ko'ngilli yong'in o'chirish guruhi faoliyat ko'rsatishi;

– sodir bo'lgan yong'in haqida yong'inni o'chirish qismiga xabar berish uchun telefon aloqasi va radio tarmog'i ishlab turishi;

– mavsumga jalb etilgan tarbiyachi va ishchi xizmatchilar yong'in chiqqanda to'g'ri harakat qilishi, shuningdek, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalana olishi kerak.

**Rustam MUHAMMADJONOV,**  
12-XYOXO inspektori, mayor

Dunyoga mashhur allomalaridan «Shoh Edip» tragediyasining muallifi Sofokl 91 yosh, buyuk faylasuflar Demokrit taxminan 100 yosh, Aflotun esa 81 yosh umr ko'rishgan.

### BILASIZMI?

Arifmetik masalalar to'plamidan iborat dunyodagi eng birinchi darslik, armanistonlik olim David Yengilmas tomonidan melodiy VI asrda yaratilgan. Ushbu noyob asarning bir nusxasi bugungi kunda Yerevan shahridagi Matenadaran (qadimgi qo'lyozmalar to'plangan ulkan arxiv)da saqlanmoqda.

### BILASIZMI?

Ko'hna Babil ahli hozirgi kunda o'quv darsliklarida qayd etilgan «Pifagor teoremasi» deb ataladigan qoidani Pifagor tug'ilishidan 1200 yil ilgari bilishgan ekan.

### BILASIZMI?

1903-yilning 17-dekabrda inson ilk bora o'zi yasagan samolyot yordamida havoga ko'tarilgan. Aka-uka Raytlar tomonidan ixtiro qilingan ushbu samolyotning parvozi atigi 59 soniya davom etgan. Buning uchun ixtirochilar roppa-rosa 11 yil mehnat qilishgan.

### BILASIZMI?

Stenografiya ilmi o'qilayotgan ma'ruza, suhbatlarni maxsus belgilar yordamida tez va qisqa yozib olish usuli miloddan oldingi 63-yilda Tiro ismli qul ayol tomonidan ixtiro qilingan. Bu ayol notiq Siseronning shaxsiy kotibasi edi.

### BILASIZMI?

Taxallus ostida irod qilgan dunyodagi eng birinchi adib – miloddan avvalgi taxminan 445-385-yillarda Afinada yashab o'tgan «Komediya qiroli» Aristofan hisoblanadi.

## SAMARQANDDA


Aziz o'quvchilar, avval xabar qilganimizdek, Samarqand shahrida «Barkamol avlod yili»ga bag'ishlab namunali bolalar ansambllarining Respublika ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Ushbu tanlovni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi ijrosini ta'minlash, badiiy havaskorlik san'atini rivojlantirish, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda faoliyat ko'rsatayotgan namunali bolalar ansambllari faoliyati bilan yaqindan tanishish, yoshlarning milliy qadriyatlarimiz, an'analimiz, urf-odatlarimiz, musiqa, qo'shiq va raqs san'atiga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish, iqtidorli yosh ijrochilarni kashf etish hamda ularning san'atini keng targ'ib etishdan iborat edi.

Tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda g'olib deb topilgan bolalar ansambllari o'zaro ijodiy bellashdilar.

Ishtirokchilarning chiqishlarini O'zbekiston Davlat konservatoriyasi prorektori, professor Avaz Mansurov,


Fransiyaning Parij shahrida yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan A.Glazunov nomidagi VI Xalqaro ko'rik-tanlovda qirqdan ortiq mamlakatlardan yosh musiqachilar ishtirok etdilar. Kamonli-torli cholg'ular ijrochiligi bo'yicha o'tkazilgan tanlovda poytaxtimizdagi V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi o'quvchilari Zulfiya Bashirova, Anna Xoliqova, Shukrullo Ajimetov, R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi o'quvchisi Zebo Sobitovalar skripka ijrochiligi bo'yicha birinchi o'rinni egallashdi.

G'oliblarni muvaffaqiyatlari bilan qutlab, ularni suhbatga tortdik.



– Ochig'i, tanlovda 1-o'rin sohibasi bo'laman, deb o'ylamagandim. Negaki, tanlovda dunyoning turli joylaridan eng iqtidorli tengdoshlarimiz ishtirok etishayotgan edi. Avvaliga ozgina hayajonlandim, keyin o'zimni qo'lga oldim. Usto-

zim Zayko Mark Nikolayevich bizga sidqidildan saboq berganlari tanlovda o'z natijasini ko'rsatdi. Bu tanlov nafaqat ustozimizni, balki ota-onam, do'st va yaqinlarim quvonchiga quvonch; shodligiga shodlik qo'shdi.




– Tanlov juda qiziqarli o'tishi biz ishtirokchilarning qalbidagi kechayotgan

aloqalarimizni mustahkamlaymiz.

qo'rquv va hayajonni bosa oldi. 11 kun davomida go'zal Parij shahrida bo'lib, Rossiya, Belorussiya, Fransiya, Yaponiyadan kelgan tengdoshlarimiz bilan do'stlashib oldik. Bunday tanlovlar orqali iste'dodimizni namoyon etibgina qolmay, turli mamlakat o'g'il-qizlari bilan

aloqalarimizni mustahkamlaymiz.



– Parij juda chiroyli shahar ekan. U yerda Germaniya, Litva, Rossiyadan kelgan o'quvchilar bilan tanishib, ular bilan bellashishga muvaffaq bo'ldik. Tan olishimiz kerak, boshqa mamlakatlardan kelgan tengdoshlarimiz juda

iste'dodli va iqtidorli ekanlar. Ular bilan bellashish oson kechmadi. Tanlovda 1-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsam-da, keyingi bo'ladigan tanlovga yanada puxtaroq tayyorgarlik ko'rishni rejalashtirib qo'ydim.

## PARIJDAGI MUVAFFAQIYATLAR

**Shukrullo AJIMETOV:** – Tanlovda ishtirok etishdan oldin ustozim Go'zal Ardasherovanning saboqlarini oqlab, ustozim, ota-onam, do'stlarim oldiga yorug' yuz bilan qaytishni orzu qilardim. 1-o'rin sohibi bo'lganimdan so'ng Vatanim O'zbekistonga ozmi-ko'pmi loyiq farzand bo'layotganimdan qalbim g'urur va iftixorga to'ldi. Bu tanlovda ishtirok etganimdan juda baxtiyorman.

**Bu hali hammasi emas.** Yurtdoshlarimiz Olmeta shahrida bo'lib o'tgan xoreografiya maktablarining II umumjahon musobaqasida ishtirok etib, ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdilar. Dunyoning o'n ikki mamlakatidan tashrif buyurgan o'quvchilar ikki hafta davomida bellashib, iste'dodlarini sinab ko'rdilar. Ushbu tadbirda O'zbekistonning Toshkent Davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi o'quvchilari faxrli natijalarga erishdilar.

«Folklor» nominatsiyasi bo'yicha yapon, koreys, turk va boshqa millat o'quvchilari bilan bo'lgan bellashuvda Dilafroz Yusupova xorazmcha raqsi bilan birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Margo Avdeyeva «Klassik raqs» nominatsiyasida «Uyqudagi go'zal», «Qarsildoq» hamda «Bayadera» baletlaridan variatsiyalar ijro etib, uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Madina Yusupova kichik guruhda qatnashib, Diplom sohibi bo'ldi.

Yuqori natijalarga erishgan tengdoshlaringizni qutlab, ularga kelgusida omad tilab qolamiz!

Gulyuz BAHODIR qizi

## BIR BAYRAM BO'LDI..



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, baletmeystri Nasiba Madrahimova, Samarqand Davlat universiteti musiqa va san'atshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi Javodbek Kozimov singari mutaxassislar baholab bordilar.

Hakamlar hay'atining qaroriga asosan oliy

o'rin Surxondaryo viloyati, Boysun tuman madaniyat uyi qoshidagi «Quralay» folklor-etnografik ansambliga birinchi o'rin, Samarqand shahar, Hoji Abdulaziz Abdurasulov nomli san'at kolleji qoshidagi bolalar musiqa va san'at maktabi «Navnihol» bolalar ansambliga ikkinchi o'rin, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahar 7-bolalar musiqa va san'at maktabi qoshidagi «Qaro ko'zim» yosh maqomchi bolalar namunali ansambli va Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar madaniyat uyi qoshidagi «Naushe» va «G'umsha» bolalar ashula va raqs ansambllariga uchinchi o'rin nasib etdi. Tanlov ta'sislaridan biri bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasining maxsus sovg'asi bilan Samarqand shahar Hoji Abdulaziz Abdullayev Abdurasulov nomli san'at kolleji qoshidagi bolalar musiqa va san'at maktabi «Navnihol» bolalar ansambli qatnashchilari Gulnoza Jabborova

va Og'abek Yusupov taqdirlandilar.

G'oliblarga ta'sislar va homiylarning Diplomalari, «Faxriy yorliq» hamda qimmatbaho sovg'alari topshirildi. Ko'rik-tanlov ishtirokchilari Samarqand shahrining markaziy xiyoboniga o'rnatilgan Sohibqiron Amir Temur haykali poyiga gulchambarlar qo'ydilar. Shuningdek, shaharning diqqatga sazovor joylari, qadimiy va tarixiy obidalari bilan tanishdilar.

O'z muxbirimiz





## AJDODLARGA EHTIROM

Hayot ummonida xayol shaylanar, Moziy charxpalagi giryon aylanar. Boqiylik qa'rida bir aks mujassam, Yuragimda bir nur raqs etar – xurram.

Tarix sahifalarin ochaman asta, Xayollar bag'rida suzib ohista. Ulkan minoralar moziydan darak, Azim chinorlari aytadi ertak.

O, qancha jasorat, mashaqqat, mehnat Bu yorug' kunlar deb chekilgan zahmat. Deymiz dilda tongdan to oqshom, Ulug' ajdodlarga ming bor ehtirom.

Lobar QUVONOVA,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti qoshidagi akademik litsey o'quvchisi



Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 26-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Aziza Oripovadagi san'atga, rang tasvirga bo'lgan oshuftalikni payqagan ustози Tohir aka Nazarov unga alohida e'tibor qaratdi. Ranglar orqali o'z tuyg'ulari, ichki kechinmalarini aks ettirishga intiladigan, rang-barang, bir-birini to'ldiruvchi rasmlar chizishga harakat qiladigan ijodkor qiz tumanda o'tkaziladigan iqtidorli o'quvchilar ko'rik-tanlovida muntazam ishtirok etib, sovrinli o'rinlar sohibiga aylandi.

Aziza doimo izlanishda. Turli mavzularda suratlar ishlash bilan birgalikda, o'zbek qizlariga xos bo'lgan sharqona milliy kashtachilik, quroqchilik sir-asrorlarini o'rganib, bir-biridan ajoyib so'zana-yu bolishlar ham tikadi.

Kelajakda ota-onasi, ustozlari u bilan faxrlanib yurishlarini istaydi.

Mahbuba ZAYNIYEVA,

Sobir Rahimov tumanidagi 249-maktab o'quvchisi

## YUTUQLAR

### DEBOCHASI



Poytaxti- m i z d a g i «Bobur» nomli madaniyat va istirohat bog'ida shahar o'quvchi-yoshlar texnik ijodiyoti markazi tomonidan tadbir o'tkazildi. Unda Hamza, Sirg'ali, Uchtepa, Yunusobod, Shayxontohur, Chilonzor, Sobir Rahimov tumanidagi maktablar hamda 22-«Mehribonlik uyi» o'quvchilari «Raketamodelchilik», «Samolyotsozlik», «Avtomodelchilik» va «Kemasozlik» yo'nalishlari bo'yicha bellashdilar.

Markaz xodimlari yoshlarni koinotning zabt etilish tarixi bilan tanishtirdilar. Musobaqani bosh hakam Alisher aka Usmonov ochib berdi.

Raketa modelchilik musobaqasida Kamoliddin Rahmonqulov, avtomodelchilik musobaqasida

Sarvar Agzambekov g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, aviamodelchilar bellashuvida Salohiddin Faxriddinov, kemasozlik yo'nalishida Fayzullo Rixsiboyevlar shohsupaning yuqori pog'onasidan joy egallashdi.

Bu yutuqlar yosh texniklarimiz hayotidagi muvaffaqiyatlarning debochasi bo'ladi, degan umiddamiz.

ZUHRA, ZUBAYDA



## AYTAR SO'ZIM

Har bir so'z marjoni –Vatanim naqshi, Unda jilva qilar mehr-u muhabbat. Shunday ulug'vorsan, oh, qanday yaxshi, Hurligim, o'zligim sendadir faqat.

Tog'laring viqoring nishonasidur, Dilxush allalaring quchar beshiging. Bog'laring – bahoring koshonasidur, Ochilar bag'ringda jannat eshiging.

Ayro tusholmasman quchoqlaringdan, So'lim sarhadlari nurlarga konim. Tashna dilim qonar buloqlaringdan, Onamdek mo'tabar Vatanim – jonim.

Mahzuna BOZOROVA

## KITOB

Hayotimiz oynasi, Bilimlarning onasi. Biz uchun misli oftob, Bu kitobdir, bu kitob.

Kitob aqlingga aql Qo'shadi har kun, har choq. Kitob bilan bo'lg'in do'st, Uni qadrla, o'rtoq.

Temirbek ERGASHEV, Toshkentdagi 178-maktabning 3-sinf o'quvchisi

## BOBOM O'GITI

Amir Temur bobomiz, Tilda doston qudrati. Minnatdor avlodlarning, Unga cheksiz hurmati. Samarqand-u Andijon, Yo'llarida izi bor. Kuchimiz adolatda, Degan o'tli so'zi bor. Qancha yillar o'tsa ham, Yodimizda yashaydi. Pand-u nasihatlari, Bir mayoqqa o'xshaydi.

Nilufar YUSUPOVA, poytaxtdagi 291-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi



## QUYOSH

Quyosh chiqqani hamon Kulib boqar olamga. Qablarga zavq ulashib, Kirib kelar xonamga.

Bugun yuzim qizardi, Yana qolibman uxlab. Meni rosa izlabdi, Dugonam holim so'rab.

Endi har tong turaman Salom berib Quyoshga. Maktabga oshiqaman, Joy qoldirmay ko'z yoshga.

Bibimaryam RAHMONOVA, Qashqadaryo viloyati, Nishon tumanidagi 18-maktabning 6-sinf o'quvchisi

## OYDIN ORZULAR

Ayni kunlarda respublikamizning barcha umumta'lim maktablarida bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunariga yo'naltirish ishlari olib borilmoqda.

Shu munosabat bilan poytaxtimizdagi 242-maktabda uchrashuvda bo'lib, bitiruvchi sinf rahbarlaridan biri Ra'no Nosirova bilan suhbatlashdik.

– O'quvchilarning qiziqishlariga qarab kasb tanlashlariga to'g'ri yo'nalish beryapmiz, – deydi Ra'no opa. – Toshkent shahrida 119 ta kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari mavjud. Bu maskanlarda bitiruvchi sinflar uchun «Ochiq eshiklar kuni» tashkil etilgan. O'quvchilarimizni imkon qadar barcha kollej va akademik litseylar bilan tanishtirishga harakat qilyapmiz. Ularning ota-onalari bilan ham davra suhbatlari o'tkazdik.

– Men Toshkent Davlat texnika universiteti qoshidagi akademik litseyda aniq fanlar bo'yicha o'qimoqchiman, – deydi Ra'no opaning shogirdlaridan biri Doniyor Ravshanov. – Kelgusida matematika va fizika fanlarini mukammal o'rganib, shu sohada kashfiyotlar qilishni istayman.



Nozima Abdulalomova: – Bemorlarning dardiga darmon bo'lish – eng oliy maqsadim. Puxta bilim olib, kelajakda qo'li yengil jarroh bo'lmoqchiman.

Nima ham derdik, mustaqil hayot bo'sag'asida turgan yoshlarimizga omad tilaymiz.

Barno RUSTAMOVA



# «QUVMOQ TANAFFUS»



## IKKI OYOQLI TULKILAR

(Voqeiy hikoya)

...Yarim tunda katakdagi tovuqlar birdaniga bezovta qag'illasha boshlashdi.

Shunda bobom sergak tortib:

– Qo'lchiroqni ol, – deya o'rinaridan apil-tapil turib ketdilar. Men ham bobomga ergashdim. Atrof zim-ziyo, tiq etgan tovush yo'q. Shunday bo'lsa-da, tovuqlardan xabar olish maqsadida katak oldiga bordik. Uning kichkinagina eshigi lang ochilib yotardi.

– Qani sana-chi, o'n ikkita chiqarmikan, – dedilar bobom. Qo'lchiroqni yoqib, sanay boshladim. O'nta ekan. Iye, oq va qizil xo'rozimiz qani? Nahotki tulki oralab, aynan dakan xo'rozlarimizni olib ketgan bo'lsa-ya...

Katakni berkitdik-da, uyga qaytdik.


– Bobojon, katakka ikkita tulki kirganmi deyman, ikkita xo'rozimiz yo'q-ku, – dedim.

Bobom miyig'ida kulib: – Menimcha, ikki oyoqli tulki kirganga o'xshaydi, – dedilar.

Allamahalgacha gaplashib yotib, uxlab qolibman. Ertalab odatdagidek qo'shni bolalar bilan qo'ylarimizni yaylovga haydadik. Qishloq oralab o'tgan yo'lni kesib, qo'ylar izidan jilg'a tomon borayotganimda, yo'l chetida sochilib yotgan oq va qizil tovuq patlariga ko'zim tushdi. Birdan tungi voqea yodimga tushdi. Bechora dakanlarimiz chindan ham tulkilarga yem bo'libdi-da, deya patlarga termulib turgandim, qayerdandir musiqa sadosi eshitilib qoldi. Ne ko'z bilan ko'rayki, bu ovoz patlar orasida qonga belanib yotgan qo'l telefonidan kelayotgan ekan. Uning tugmachasini bosib, qulog'imga tutdim.

– Allo... Parda... xo'roz go'shtidan bo'kib qoldingmi deyman-a, nega kelmayapsan? – degan ovoz eshitildi. Men jimgina telefon raqamiga razm soldim. Unda Farhod ismi va telefon raqami turardi. Telefoni mahkam ushlab, bobomning yoniga yugurdim.

– Men aytgan ikki oyoqli tulkilar shular, – dedilar bobom boshlarini sarakmi, bolam, qing'ir ishning sarak qilib. – Ko'rding-chiqiyg'i albatta chiqadi.



Adham XUSHMUROD, Surxondaryo viloyati, Boysun tumani

Tahririyatimizga kelayotgan maktublar orasida tasviriy san'at namunalarining ko'pligi bizni behad quvontiradi. Chunki qalbi san'atga, go'zallikka oshno bolalardan faqat ezgu ishlar kutish mumkin.

Yaqinda kattagina xat-jildda kelgan quyidagi



## RASMLAR KO'RGAZMASI



rasmlar e'tiborimizni tortdi. Ranglar uyg'unligi, tasvirning aniqligi, detallar mutanosibligi bilan boshqalardan ajralib turgan ushbu rasmlar muallifi bilan qiziqdik.



Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumanidagi tasviriy va amaliy san'at litseyining 8-«A» sinf o'quvchisi Azizbek Boltaboyev chizib yuborgan rasmlar sizga ham ma'qul bo'ladi, degan umiddamiz.

## Topishmoqlar

- Opa-singil, Og'ir-yengil. (12010L)
- Bir savat anor, Hadding bo'lsa ol. (8,04C)
- Hindistonning xini bor, Xinida ko'p qizi bor. Ular peshonasida, Dona hindi xoli bor. (4n8ng)
- Bir juft qadrdon, Bo'yi tizzadan, Qolmaydi bizdan, Asrar qor, muzdan. (411E)

Mahfuzaxon JALOLDINOVA, Andijon viloyati, Andijon tumanidagi 24-maktabning 9-«B» sinf o'quvchisi

## TOPISHMOQLI KROSSVORD

**BO'YIGA:**

- Mushuklar shohi.
- Qumga uya quruvchi qush.
- Mamontning vorisi.
- Qo'shiqchi maymun.
- Dum terisi tangacha. Kemiradi kechgacha.
- Uyasi bor qirg'oqda, O'zi aytig qayoqda?
- Uchar olmaxon.
- Xaltasi bor qo'ynida, Erkatoyi yonida.
- Ayiq emas, ammo u, Qish pallasi uxlaydi.
- Yuragi eng kichik bo'lgan yirtqich hayvon.

**ENIGA:**

- Suv ham, go'sht ham yemas hayvon.
- Tumshug'i oq tog' she'ri.
- Faqat bo'yni emas, tili ham uzun hayvon.
- 96 tishi bor, lekin ovqatni chaynamay yutadigan baliq.
- Mo'ynasi oltinga teng kemiruvchi.
- Qanoti bor, ucholmaydi.
- Patlasi lon, becholmaydi.
- O'sogol maymun.
- 2000 kuyda sayray oluvchi qush.
- Vertolyot nomini olgan qush.

**Dilnoza USMONOVA, O'zMU qoshidagi Sobir Rahimov akademik litseyi o'quvchisi**



Uyquga ketishdan oldin chizoqlarni o'chirib, datvozalarni bezkitib, suv idishlarni va oziq-ovqatlarni ustini yopib qo'yinglazz.

Gazchi Xitoyda bo'lsa ham ilmga intilinglazz, chunki ilm olishga hazakat qilish haz biz mo'minga fazzdz.

QIZLAR AKADEMIYASI

Assalomu alaykum shirindan-shakar qizaloqlarim! O'qishlar, imtihonlar bilan hormay-tolmay yuribsizlarmi? Sizlar misoli gul-u g'unchasiz. G'unchalar esa aslo so'lmasin, doimo chiroyli ochilib, o'z iforidan barchani bahramand qilishini istagan holda mazkur sahifamiz sizlarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

## Faxrlanaman

2010-yil «Barkamol avlod yili»-da bizning xonadonimizda katta shodiyona bo'ldi. Mening sevimli opajonim nufuzli Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldilar. Ota-onamning quvonchlarini bir ko'rsangiz edi.

Bizning qishlog'imizda bunday katta mukofotni hali hech kim olmagan edi.

Ularining «Onaginam – farishtaginam» nomli kitoblari ham chiqqan. Bir qancha maqolalari matbuotda muntazam bosilib turadi. Respublika «Kamolot» YOIH Chilonzor tumani yetakchilar kengashi raisi. «Amaliyotchiga yordam» deb nomlangan uslubiy qo'llanma muallifidir. Opajonim – Osiyoxon Jaylobova bilan faxrlanaman.



## MUNAVVAR – YORUG'LIK DEGANI

Munavvarabonu Ergasheva Zarbdor tumanidagi 3-maktabning 9-sinfida a'lo baholarda o'qiydi. Sinfdoshlari Mohira, Ozoda, Nasihat kabilarga bilganlarini o'rgatadi, ulardan o'rganadi.

Munavvara «Eng faol kitobxon» tanlovida birinchi, viloyatda faxrli o'rinni egalladi. Shuningdek, viloyat fan olimpiadasida ona tili va adabiyot yo'nalishida ishtirok etib, 1-darajali diplomga sazovor bo'ldi.

Ustozlarim hamda sinf rahbarim, ona tili va adabiyot o'qituvchimiz Dilorom opa Namozovadan cheksiz minnatdorman. Ular o'z fanlariga shu qadar qiziqтира oldilarki, bu fanni mukammal o'rganishga qaror qildim. Opamizdek ustoz bo'lsam, o'zimni

baxtiyor hisobladim, – deydi Munavvarabonu. Munavvar – nur, ziyo, yorug'lik degani. Ismi jisimga monand qizimizga «Mustahkam biliming, odob-u axloqing bilan hamisha atrofingizga nur, ziyo taratib tur», degimiz keldi.

Saydullo QOZOQBOY o'g'li



Bugun darsimiz erta tugadi. Uyg'a qaytish uchun bekatta avtobus kutib o'tirdim. O'sha kuni negadir ha-vo dim bo'l-gani uchunmi, o'zimni ancha toliqqanday his qildim. Shu payt qo'lidagi hassasini astagina do'qillatib bir ayol kela boshladi. U kishining ko'zlari ojiz bo'lsa kerak, atrofga javdirab qarar, kimdandir najot istardi.

– Bolalarim, 21-avtobus ko'rinmayaptimi? Iltimos, avtobus kelsa, aytib yuboringlar, mening ko'zlarim ojiz, – deya hammaga iltijoli boqardi.

Mana, onaxon kutgan 21-avtobus ham keldi. Ikki o'spirin

ayolni qo'llaridan yetaklab, avtobusga chiqarib qo'yishdi. Onaxon qo'llarini duoga ochib: – Rahmat, bolalarim,

deya chin dildan duo qildilar. Ularni kuzatib turgan bir nuroniy otaxon haligi yigitlarga qarab: – Balli, bolalarim, otangizga ming rahmat, – dedilar. Talaba yigitlar esa, arzimaydi otaxon, axir o'zimizdan kattalarga yordam berish bizing burchimiz-ku, deb qo'yishdi.

Mening esa «Duo olgan omondur... degan maqol yodimga tushdi. Yurtimizda shunday mehribon yigitlar ko'payaversin degim keldi.

Shodiya JAMIYEVA,  
Buxoro viloyati

ilohim kam bo'lmanglar. Ko'zlaringizdan nur ketmasin, –

21-AVTOBUS  
KORINMAYPTIMI?

(Hikoya)



Ustoz, muallimsiz qolganda zamon,  
Nodonlikdan qaro bo'lurdi jahon.

A.JOMIY

MAKTUBLARNI  
O'QIGANDA...



USTOZLARNI  
ASRAYLIK

Men dastlab gullar shahri Namanganning so'lim «Chorkesar» qishlog'idagi 3-o'rta maktabda tajribali, malakali ustozlarimdan 7 yil saboq oldim. Ular haqida har qancha gapirsam, maqtasam, shuncha kamdek tuyuladi. Hozirgi kunda esa barcha sharoitga ega bo'lgan Toshkentdagi 296-maktabda ta'lim olayman. Ustozlarimiz darslarni turli noan'anaviy usullarda qiziqarli o'tib, o'quvchilar ongiga singdirib kelishmoqda. Bizda ochiq darslar tez-tez o'tkazib turiladi. Uzoq yillar mobaynida o'quvchilarga sidqidildan saboq berib kelayotgan faxriy ustozlarimiz Gulchehra Jo'rayeva, Yulduz Ahmedova, Dilnoza Jo'rayeva, Mavjuda Qosimova, Mohira Ibragimova, Mulqara Qirg'izova, Venera Qo'chqorova, Munira Abdullayevalardan bir umr minnatdormiz.

Direktorimiz Barno Mahmudovanning yetti o'lchab bir kesishlari, Surayyo Qodirovaning o'quvchilar ko'ngliga yo'l topib, ona-boladek so'zlashishlari, Zarifa Xolmatovanning maktabimiz ravnaqi yo'lida tinib-tinchimasliklari, Go'zal Musaxo'jayevaning tashkilotchiligi, Kamola Egamberdiyeva hamda Halima Ergashevaning darslarni sodda, ravon tilda tushuntirishlari, Nodira Dinikulova, Shahlo Jo'rayevalar yosh bo'lishlariga qaramay, me'yoriga yetkazib dars o'tishlari bizni quvontiradi. Hademay jonjon maktabimiz bilan xayrlashamiz. Shunday ekan, ustozlarimiz sabog'ining qadriga yetaylik. Zero, ular kelajakda bizga yo'lchi yulduz bo'ladi.

Qamara JAYLOBOVA,  
9-«D» sinf o'quvchisi



KO'NGLI  
OFTOBDEK  
ISSIQ

Aziz tengdoshlarim, men bugun ustozim Dilfuza opa Shukurova haqida yozish uchun qo'limga qalam oldim. Ular maktabimizning eng jonkuyar, fidoyi o'qituvchilaridan. Bizga tarix fanidan dars berib kelmoqdalar. Bor bilim va tajribalarini ayamaydilar. Ba'zida bilib-bilmay ularni xafa qilib qo'ysak ham ranjmay, yaxshi o'qishimiz kerakligini tushuntiradilar.

Qadrli «Tong yulduzi» gazetasi! Shu maktubimni sahifangiz orqali yoritangiz. Barcha tengdoshlarim ham bizga ilm-ma'rifat ulashib kelayotgan mehribon ustozlarini o'z ota-onalaridek izzat qilishlarini istardim. Sizlarga hurmat bilan,

Gulandom ZIYODULLAYEVA,  
Respublika musiqa va san'atga  
ixtisoslashtirilgan maktabning 9-sinf o'quvchisi

O'quv yili ham tugadi. Bugun so'nggi qo'ng'iroq. Bu qo'ng'iroq jarangida yil davomida erishilgan yutuqlarning ovozi bor. Ammo maktab bag'ri hamon o'quvchilar bilan gavjum. Qo'llarida guldastalar ko'targan bolajonlar hayajon ostonasida. Tahririyatimizga esa so'nggi qo'ng'iroq sadosi eshitilmoqda. O'quv maskanlarida bo'lib o'tayotgan tadbirlar haqidagi xabarlarining keti uzilmayapti. Ayniqsa, telefon qo'ng'iroqlari tinimsiz jiringlaydi.



– Allo, bu «Tong yulduzi» tahririyatimi?  
– Labbay, eshitamiz sizni.  
– Men Mirobod tumanidagi 154-maktab direktori Muharram Mirhusanova bo'laman. Menga gazetangizning Farg'ona viloyatiga bag'ishlangan maxsus soni juda ma'qul bo'ldi. O'quvchilarim: «Biz ham farg'onalik bolalardan qolishmaymiz», deyishmoqda...  
Muharram opaning dadil, zukko shogirdlari bilan tanishish maqsadida yo'lga otlanamiz.

## RASSOMLARI KO'P EKAN



Sizning sinfdoshingiz ham yosh rassommi? Unda rasm chizish zavqini his qilarkansiz. 154-maktabning bo'lajak rassomlariga sahna ham torlik qildi. 9-«B» sinf o'quvchisi Jahongir Maqsudovning chizgilarini tomosha qilar ekanmiz, «Koinot mening tasavvurimda», «Muhabbat», «Alisher Navoiy gulzorda» nomli rasmlarini ko'rib zavqlandik.

Uning sinfdoshi Nilufar Hakimjonova ham san'at shaydosi ekan. Jahongir chizgan rasmlarini yorqin ranglarda tasvirlasa, Nilufar munchoqlar bilan «tillashadi».

Maktab «Do'stona munosabatlar maktabi» dasturidan joy olgan.

Dasturning maqsadli sifatli ta'lim va bolada hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

## AHATJONNING USTOZI



Maktabda Dilmurod akaning shogirdlari ko'p. Ularning bari san'atning haqiqiy shaydolari. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Dilmurod Mirzo har bir darsini go'yo katta konsert dasturlaridek olib boradi.

7-«A» sinf o'quvchisi Ahatjon

Abdullayev ham ustozidan mumtoz qo'shiqlarni mehr bilan o'rganib, maromiga yetkazib kuylayapti. Uning ijrosidagi «Mustahzod», «Soqiynomai savti Kalon», «Dog'man» qo'shiqlarini tinglaganlar «Ustozingga rahmat!» deyishadi beixtiyor.

## BETAKROR MO'JIZA




Kashtachi va zardo'z bolalar haqidagi maqolalarni ko'p o'qigansiz. Ammo popopchi bola haqida eshitmagandirsiz-a?!

9-«B» sinf o'quvchisi Umarjon Rajabov zardo'zlik to'garagining eng izlanuvchan a'zolaridan. Xalq amaliy san'atini mehr bilan o'rganayotgan

Umarjonning ustози – onasi Farog'at Ergashevadir. Hunarli insonlarni hamma hurmat qiladi, chunki ular qo'l mehnatida takrorlanmas mo'jizalar yashaydi-da.

## OLIMPIADA CHEMPIONI



3-«B» sinf o'quvchisi Shohruh Tursunboyev sahnaga chiqqanida, zal qarsaklarga to'lib ketdi. Avvaliga hayron bo'ldik. Shohruh bo'ynidagi shoda-shoda medallarini ustoziga tutqazdi-da, karatening pumsa, sparing mashqlarini chaqqonlik bilan ko'rsatib berdi. Beixtiyor olqishlar zarbidan zal titroqqa keldi.

Darvoqe, 24 kilogramm vazn toifasida Osiyo chempioni bo'lgan Shohruh husnixat olimpiadasi-ning ham mutlaq chempioni ekan.

## MAKTAB YULDUZI



7-sinf o'quvchisi Muslima Ibrahimovaning jarangdor va yoqimli ovozi eshitganimizda, «Muslima maktabning yulduzi» degan fikrga chinakamiga biz ham qo'shildik.


«Bulbulcha» dastasining rahbari Shermat aka Yormatovning sabog'idan, san'atidan sayqal topayotgan Muslimaning qo'shiqlari allaqachon o'z muxlislarini topgan.

## «NURAFSHON» NURLI YO'LDA

«Nurafshon» gazetasi o'quvchilarning eng yaqin do'sti. Ustoz Zamira Muhammadiyevaning she'rini siz ham o'qib ko'ring-chi:

Biz gazeta chiqarib, «Nurafshon» deb nom qo'ydik,  
Bir-biridan qiziq sahifalar bor unda.  
Ilg'or tajribalar-u, muammo, yana xanda  
Maktab yangiliklarin yoritamiz oyma-oy,  
Ijodiy namunalar gazetadan olar joy.

Gazetaning har bir sonidan joy olgan maktab, tuman va mahalla tarixi, uning fidoyi insonlari haqidagi maqolalar uning yanada o'qishli chiqishiga turtki bo'lmoqda.



## Xo'sh, shunga shunchami, deb o'ylashingiz tabiiy



Ertak eshitmagan yoki ertakni yaxshi ko'rmagan odam bo'lmasa kerak. O'zing yaxshi ko'rgan qahramonlar bilan uchrashish hamisha zavqli.

Poytaxtimizdagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktabi o'quvchilari kuni kecha ustozlari, ota-onalari hamda mehmonlarga ana shunday quvonchni hadya etdilar.

Mahliyo Mirzaahmedova, Gulnoza Hasanova, Nazokat Abdullayeva kabi ustozlarning shogirdlari «Zolushka», «Qizil shapkacha», «Echki va uning bolalari» kabi ertaklarni namoyish etib, tengdoshlarining havasini keltirishdi.



Bu maktab bolalariga bizning havasimiz keldi. Sizni-chi?

Yusuf  
ABDULLAYEV,  
Olovuddin  
ORIPOV

### MAY – INGLIZ TILI OYLI

Shayxontohur tumanidagi 82-umumta'lim maktabida ingliz tili fani oyligi bo'lib o'tmoqda. Xolida Ilhomova 8-sinf bilan «One day IU stage a play» mavzusida, Gulnora Tolipova esa 7-sinf o'quvchilari o'rtasida «Are you good compinion» mavzularida noan'anaviy inavatsion usullardan foydalanib, ochiq darslar o'tkazdilar.

Ayniqsa, jahon xalqlari ertaklari jonlangan sahna ko'rinishi o'quvchilarda katta taassurot uyg'otdi. Fan oyligining qiziqarli va mazmunli o'tishida ingliz tili fani o'qituvchilari Safargul Xalilayeva va Matluba Mirxoliqova kabilarning hissasi katta bo'ldi.

Barkamol avlodni tarbiyalashdek muhim vazifada maktablarda bo'layotgan fan oyliklarining o'rnini katta bo'lmoqda.

Zubayda MAMATQULOVA

## ERTAKLAR OLAMIGA XUSH KELIBSIZ!

Xo'sh, shunga shunchami, deb o'ylashingiz tabiiy. Bugunning bolasi bunday ishlarni qoyilmaqom qilib bajarishi oddiy hol bo'lib qolgan. Ammo 5-, 6-, 8-sinf o'quvchilaridan iborat ijodiy guruh bu ertaklarni sof ingliz tilida namoyish etgan bo'lsa-chi? Eh, bu boshqa gap! Qoyil-e, deysizmi? Biz ham qoyil qoldik. May oyi chet tillari fan oyligini namunali yakunlagan maktab o'quvchilari sarhisob sifatida shunday ishini amalga oshirdilar.

Maktab rahbari Yulduz opa Nizomovanning e'tirofi etishicha, har bir fan oyligi bu maskanda ana shunday ko'tarinki ruhdan o'tarkan.



Hayvonlar ichida eng darozi hisoblangan jirafa tilining uzunligi yarim metrgacha bo'lib, mutlaqo qora rangda.

\*\*\*



Parrandalar ichida o'rdak sovuqqa chidamlik bo'yicha birinchi o'rinda turadi.

\*\*\*

Dunyodagi eng aqlli qush bu Afinaning kulrang to'tisidir.

\*\*\*

Atlantika okeanidagi akulalarning bolalari ona qorindaligidayoq bir-birlarini yeb qo'yar ekan.

Mana buni chin ma'nodagi ochofatlik desa bo'ladi...

DILOROM

## B OG'DA BELLASHUV O'LDI




Qizlar o'rtasidagi qiziqarli bahs 35-maktabning 9-sinf o'quvchisi Dilnoza Ibragimjonovani birinchi o'ringa loyiq topdi. Ikkinchi o'rinini 121-maktab o'quvchisi Dildora Aliyeva band etgan bo'lsa, uchinchi o'ringa

Kushmuhammedovaga nasib etdi. O'g'il bolalar o'rtasidagi bellashuvda 207-maktabning 8-sinf o'quvchisi Ahmadjon Hakimjonov birinchi, 112-maktab shaxmatchisi Ilhom Xudoynazarov ikkinchi, 35-maktabning 8-

Poytaxtimizning so'lim Mirzo Ulug'bek bog'ida yosh shaxmatchilar bellashuvi bo'lib o'tdi. Mazkur turnir shaxmat bo'yicha Markaziy Osiyodagi birinchi sport ustasi Mamajon Muhiddinov xotirasiga bag'ishlab o'tkazildi.

MA'MURA

## YAXSHI



Qadrli kitobsevar bolajonlar, sevimli adibingiz Qadam Sayid Murodni yaxshi taniysizlar-a? Uning «Bir tilda gaplashamiz», «Keksa daraxtning o'ylari», «Jonatilmagan maktublar», «Zafar, zargar va zar», «Yetti yashar chol», «Guldursun», «It, mushuk va xasis

## KITOBBLAR

savdogar» nomli kitoblarini maroq bilan o'qib chiqqansiz.

Shoir akangiz shu kunlarda Sizga yana bir ajoyib sovg'a hozirladilar. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida shoirming «Dovyurak dono malika» nomli ertak-dostoni chop etildi. Yodingizda bo'lsa, uni gazetamiz orqali ham e'lon qilgandik. Mohir musavvir Nurxon Ziyoxonovanning chizgan rasmlari asosida chiroyli qilib bezatilgan bu ertak-doston ham kitob javoningizdan munosib o'rin oladi, degan umiddamiz.

## BOR

## XANDALAR



Dam olish kuni dadam bilan birga qayiqda sayr qilgandik, birdan labimga ari qo'ndi.

– Haydash kerak edi uni...

– Ulgurmadim. Dadam uni eshkak bilan urib o'ldirdi...

O'qituvchi adabiyot darsida:

– Sardor, rostini ayt, inshoni senga kim yozib berdi?

– Rostini aytсан, uqutliroq uxlab qolganim uchun kim yozganini o'zim ham bilmayman.

Fayzulla ABDULLAYEV



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi.

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:  
To'liq HAYITOV

Dizaynerlar:  
Fazliddin SHOYODGROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Navbatchilar:  
Feruz SOYIBJON qizi,  
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

### TAHRIR HAY'ATI:

Avaz MARAHIMOV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruz JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

### Manzillimiz:

Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeksi: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

### «O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

Haftaning dushanba kuni chiqadi.

Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092

Adadi - 71343  
Buyurtma N: J 9493